

**O‘QUVCHILARDA BADIY ASAR NAMUNALARI ORQALI MILLIY VA UMUM  
MADANIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH  
METOD VA USULLARI**

**Haydarova Dilnozaxon Elmurot qizi**  
Qo‘qon davlat universiteti doktoranti  
Email: dilnozaxonhaydarovaa@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18957346>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta’lim jarayonida zamonaviy yondashuvlar asosida o‘quvchilarga milliy va umummadaniy kompetensiyalarni singdirish, badiiy asarlar orqali milliy Qadriyatlar hamda milliy tafakkurni shakllantirish metod va usullari haqida so‘z boradi.

**Abstract:** This article discusses the methods and techniques for instilling national and general cultural competencies in students based on modern approaches in the educational process, and for forming national values and national thinking through works of art.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются методы и приемы привития учащимся национальных и общекультурных компетенций на основе современных подходов к образовательному процессу, а также формирования национальных ценностей и национального мышления посредством произведений искусства.

**Kalit so‘zlar:** Adabiy tafakkur, ta’lim, zamonaviy metodlar, milliy immunitet, xalq og‘zakijodi, kompetensiya, milliy qadriyat, konstruktivizm.

**Keywords:** Literary thought, education, modern methods, national immunity, folk oral Creativity, competence, national value, constructivism.

**Ключевые слова:** Литературная мысль, образование, современные методы, национальный иммунитет, народное устно творчество, компетентность, национальная ценность, конструктивизм.

Hozirgi davrda ta’lim sohasida eng muhim vazifalar eskirgan tamoyillar va bir qolipdagi o‘qitish metodlaridan voz kechib, zamon talablariga javob beradigan yangi yondashuvlarni izlashni taqozo etmoqda. O‘qitishning eng samarali yo‘li – mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning haqiqatni bilishga, fikrlashga, erkin muloqotga, hamkorlikka intilishidir. Darslarda bu ruh bo‘lmasa, bunday mashg‘ulotlar jonsiz, zerikarli va samarasiz bo‘ladi. Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqtorasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma hamda malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi o‘quvchi yoshi va shaxsiga mos metodlarni qo‘llay olmasa, o‘quvchi shaxsiy menligini o‘zgartirish uchun darsda sharoit yaratilmasa, uning tarbiyasida chekinish yuz beradi. Ta’lim jarayonida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash, ularga ta’lim berish jarayonini sifat jihatidan takomillashtirishni talab qilmoqda. Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallik bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda mehnat bozorida raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan kadrlar tayyorlash uchun o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini o‘stirish muhim ahamiyatga ega va rivojlangan mamlakatlar tajribasida isbotlangan. Bugun adabiy ta’limga yangicha yondashuvlar, talablar o‘quvchilarda ham adabiyot darsiga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirdi. Xususan, yoshlarimiz adabiyot fanini faqat oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun bo‘ladigan test sinovlariga tayyorgarlik nuqtayi nazaridan emas, balki o‘z tafakkuri, tasavvuri, didi, saviyasi, umuman, ma’naviy qarashlarini yuksaltirish maqsadi bilan o‘rganish zarurligini his qila boshladilar. Bugungi murakkab globallashtirish sharoitida ma’naviyatimizni izdan chiqarish maqsadida xorijdan o‘zanini yo‘qotgan, selday oqib kelayotgan zararli g‘oyalarga qarshi faqat milliy badiiy adabiyotgina milliy immunitet hosil qila olishi mumkin. Chunki adabiyot ko‘ngildan paydo bo‘lib, ko‘ngillarga singadi.

## **“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

Barchaga ma’lumki, inson tafakkuri, dunyoqarashi, olamni bilish darajasi uning so‘zlayotgan nutqidan ma’lum bo‘ladi. Og‘zaki nutq shakllangan bashariyat ahli keng tafakkurga, keng dunyoqarashga, yetuk salohiyatga ega bo‘ladi. Bu o‘rinda inson nutqi avval maktabgacha ta’lim muassasasida, undan so‘ng umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida rivojlantiriladi. Xususan, maktabgachayoshdagi bolalarda tarbiyachilarning bolalar bilan o‘zaro muloqoti, bolalarning atrofdagi o‘rtoqlari bilan muloqoti ularda nutqiy artikulyatsiyaning, shu bilan ongning rivojlanishiga dastak bo‘ladi. "Fikrlash jarayoni,-deb yozadi L.Vigotskiy,-bolaning ota-onasi bilan muloqotidan boshlanadi. Mustaqil fikrlash esa bu suhbatlarni bola “yutib”, o‘zicha “hazm qila” boshlaganidan so‘ng shakllanadi”<sup>8</sup>. Bu qarashga tayanib, shunday xulosa chiqarish mumkinki, fikrlash bevosita o‘z yo‘naltiruvchi kuchi, maqsadi, usullariga ega bo‘lgandagina mustaqil faoliyatga aylanadi. 5-7-sinf o‘quvchilarida yoshga doir xarakter va xususiyat rivojlanishi bilan birga ularda kommunikativlik ham rivojlanib boradi. O‘quvchilarda atrofdagilar: ota-onasi, do‘stlari, ustozlari bilan munosabatga kirishish ehtiyoji ortib boradi. Shu bilan birga, ularda nutqiy ko‘nikma rivojlanadi. 5-7-sinf o‘quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish borasida adabiyot darsliklaridagi mavjud mavzu doirasida suhbat olib borish, mavzuga doir berilgan savol va topshiriqlar ustida ishlash milliy va umummadaniy kompetensiyani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan:

1.Asarning bosh qahramonlari kim?

2.Asardagi qaysi qahramonlar sizga yoqadi?

3.Asardagi qaysi bir qahramon siz uchun ibrat bo‘la oladi?

4. Asar syujetini o‘z so‘zlaringiz bilan aytib bering kabi savollar o‘quvchilarni o‘ylashga va tasavvuridagi o‘y-fikrlarni nutqqa chiqarishga undaydi. 5-7-sinf o‘quvchilari nafaqat asar haqida o‘z bilganlarini, asar haqida o‘z dunyoqarashini namoyon qillishga o‘rgatib boriladi. O‘quvchilarning adabiyot darslarida milliy va umummadaniy kompetensiyani rivojlantirishda nutqiy kompetensiya muhim rol o‘ynaydi. Bunda badiiy asarlarni o‘rganish, so‘zlab berish, savol-javoblar o‘tkazish muhim o‘rin egallaydi. Savol-javob o‘tkazish asnosida o‘qituvchi mavzuni nafaqat o‘rgatadi, balki o‘quvchiniberilgan savolga javob berishga odatlantiradi, bilmay qolgan savolning javobini izlashga, uni topishga,uning nima haqida ekanligiga qiziqtiradi, fikrlatadi, mushohada qiladi. Suhbat davomida o‘quvchi fandagi mavzuni o‘zlashtirish bilan birga, ularda kitob o‘qish ko‘nikmasi rivojlantiriladi. Suhbat darslari an’anaviy va noan’anaviy shakllarda olib borilishi mumkin. Suhbat darslarida interfaol

metodlardan samarali foydalanish uncha muhim emas. Oddiy suhbat tarzida olib borilgan darslar, ayniqsa, o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda asar qahramonlarini tahlil qilish, ijobiy va salbiy qahramonlarni xarakteri va xatti-harakatiga qarab ajratish, qahramonlarning ichki kechinmalarini his etishgao‘rgatish ularning ertangi kelajagiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Asardagi ziddiyatli holatlarni tasvirlaganda o‘quvchida ana shu holatga o‘zi tushib qolmasligi, ijobiy qahramonga taqlid qilishi, salbiy qahramonning xatti-harakatini kelajakda qaytarmaslikni o‘z ongida tafakkur qiladi. 5-7-sinf va undan yuqori sinf o‘quvchilari maktab yoshida shakllana boshlagan insoniy tuyg‘ularni, asar qahramonlarining dunyoqarashini tushunishga bo‘lgan qiziqish orqali anglab boradi. 5-7-sinf o‘quvchilarini o‘smirlik davri bilan taqqoslab ularda nazariy fikrlarning rivojlanganligini sezish qiyin emas. O‘smir yoshdagi o‘quvchilarda har xil muammolarni o‘zlaricha mustaqil hal qilishga ehtiyoj kuchayadi. O‘quvchilarning o‘rtoqlari, ya’ni sinfdoshlari bilan o‘zaro tortishuvlar, darslardagi munozaralar, har xil muhokamalarda qatnashish bolaning bu yoshdagi tabiiy ichki ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. O‘quvchilarning yoshlari yuqorilab borgan sari tanqidiy fikr-mulohaza yurita boshlaydilar, tortishadilar, muammo mazmuni yuzasidan savollar bera boshlaydilar. O‘quvchilarda bu yoshda mustaqil fikrlashga moyillik, o‘z fikrini o‘zi bilganicha ifodalash, atrofdagilarga tanqidiy nazar bilan qarashning kuchayishi kabi jihatlar ko‘zga tashlanadi. O‘quvchi asar orqali mustaqil fikrlash asnosida o‘zi ham ijtimoiy hayotga kirib boradi. Asar qahramonlarini o‘rganish, tahlil qilish orqali o‘z shaxsiga xos sifatleri ham shakllanib boradi. Xalq og‘zaki ijodi shaxsning kamolatida, ma’naviy dunyosida, o‘zligini anglashda va komil inson sifatida shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Xalq og‘zaki ijodining badiiyligi, tilning ravonligi, musiqiyligi insonlarga katta ta’sir o‘tkazadi, ularning shijoatini oshiradi. Insonlarning o‘smirlik paytida o‘rganadigan darsliklarida ham xalq og‘zaki ijodining qo‘shiq, maqol, topishmoq, ertak, doston, afsona, rivoyat, asotir va boshqa janrlari kengroq o‘rin olgan bo‘lib, ularda ta’lim-tarbiyaga oid xalq donishmandligi o‘z o‘rnini topgan. Xalq og‘zaki ijodida sara va durdona namunalar judayam bisyor bo‘lib, ular orasida ertaklar katta qismni tashkil etadi. Ertakchilik an’nalari, ularni o‘rganadiganmaktablar bugungi kunda muhim vazifalarni bajarmoqda. So‘z san’atining qadimiy turi

<sup>8</sup> Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. -Москва: «Просвещение».1991; С.90.

## **“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

bo‘lgan xalq ertaklarida mehnatkash xalq ommasining asrlar davomida turmush tarjibalari, ozod va farovon hayotgaintilishlari, adalotsizliklarga qarshi kurashlari o‘z ifodasini topgan. Ertaklar orasida 5-sinf adabiyot darsligidan o‘rin olgan “Uch og‘ayni botirlar” ertagining bu borada ahamiyati e‘tiborga loyiqdir. Undaifodalangan mavzular bugungi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmagan. Mazkur ertak ota va bolalar o‘rtasidagi voqealarga boyligi bilan o‘zbek xalqining milliy urf-odatlarini, an‘analarini o‘zida mujassamlashtirganligi bilan ham ajralib turadi. Bu ertakda milliy urf-odatlarimiz ifodalangan. Mana necha yillarki, bu an‘ana va urf-odatlar o‘zbek xalqini tark etgani yo‘q. Ba‘zi bir odatlar nomlanishi jihatidan o‘zgargandir, ba‘zilari esa yo‘qolgandir, ammo ularning katta qismi bugungacha o‘zining kuchini yo‘qotmagan. Ertakda urf-odatlar tilga olinadi. Asarning boshlanishidan biz urf-odatlarimiz vaqadriyatlarimizga duch kelamiz. Ko‘p marotaba o‘zbek xalqining eng yaxshi qadriyati bo‘lgan ota nasihatiga quloq solish tilga olinadi. O‘zbek xalqining qadimiy urf-odatlarini, an‘analari go‘zal badiiy vositalar bilan tasvirlangan. Agar o‘qituvchi asarni sharhlash orqali o‘quvchilarga ana shularni yetkazsa, ilm toliblari o‘quv materialidan to‘liq xabardor bo‘ladilar. Tajribali o‘qituvchilarning fikricha, sharhlab o‘qish orqali, biror bir asar matnini izohlash jarayonida o‘quvchilar notanish so‘z ma‘nosi bilan, ayrim so‘zlarning ko‘chma ma‘nosi yoki bir so‘zning bir necha xil ma‘nolari bilan tanishadilar. Milliy va umummadaniy qadriyatlar dastavval oilada, mahallada, bog‘chada shakllantiriladi. Lekin shunday bo‘lishiga qaramasdan milliy qadriyatlarga bo‘lgan hurmatni yanada yaxshiroq rivojlantirish uchun maktablarda o‘qitilayotgan adabiyot fanining o‘rni beqiyosdir. Maktabda adabiy materiallar ustida ishlayotganda o‘qituvchi har bir o‘quvchining imkoniyatlariga chin dildan ishonishi kerak. Unga "Men seni bu topshiriqni bajarishga ishonaman" yoki ""Bu topshiriqni bajarishni uddalaysan" kabi rag‘batlar bilan topshiriqlarni berishi ularning adabiy asarlarni o‘zlashtirishida yutuqlarga erishishiga ishonch, o‘zaro samimiy do‘stona aloqa, bir- birini tushunishga intilishga vosita bo‘ladi. Badiiy asarni o‘qitish jarayoniga juda katta ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. O‘quvchilarda badiiy asarlar o‘qishga qiziqish uyg‘otish siri o‘qituvchining ular bilan hamkorlikni tashkil qila bilishidir. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan o‘zaro hamkorlikni tashkil qilishidan avval 5-7-sinf o‘quvchilariga adabiyot darslarida beriladigan milliy va umummadaniy kompetensiyalarni yaxshi bilib olishi shart. Ular quyidagilar:

- o‘zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e‘tiqodini hurmat

qilish;

- milliy mafkuraning milliy, umuminsoniy tamoyillarini va vazifalarini bilish;

- milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ajrata bilishdir.

- xalqning tarixiy, ma‘naviy merosini avaylab asrash, an‘ana va marosimlarini hurmat qilish;

- milliy, umuminsoniy tamoyillarini va vazifalarini bilish;

- umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an‘analarni

bilish va unga hurmat bilan munosabatda bo‘lishdir.

O‘quv jarayonini tashkil qilishda o‘quvchi bilan samimiy suhbatlashish uning o‘z ixtiyori

bilan bu jarayonga kirishib ketishiga imkoniyat yaratadi. O‘qituvchining o‘quvchiga

munosabatidagi

samimiyligi, hurmati ikkinchi tomonning hurmatini uyg‘otadi, o‘quv-tarbiya jarayonida ixtiyoriy

faoliyatni vujudga keltiradi. O‘quvchida o‘zini tanish hamda o‘zgalar oldidagi mas‘uliyatni his

qilish

tuyg‘ularini shakllantirishga faqat uni shaxs sifatida hurmat qilish bilangina erishish mumkin.

Asar

matni ustida ishlash, badiiy matnni o‘zlashtirish o‘z holicha murakkab jarayon. Bu jarayonda yuqori o‘smir yoshida shakllanib ulgurgan o‘ziga xos hissiyot va fikrlash faoliyati muhim omil sanaladi. Shuning uchun bu yoshdagi o‘quvchiga o‘rganish uchun taqdim etilgan badiiy asar o‘z mazmuni, qahramonlarining xatti-harakati, voqea-hodisalarning rivoji, badiiyligi bilan o‘quvchilarning o‘z tushunchalari doirasida fikr aytishiga, erkin munozaraga kirisha olishiga zamin yaratadigan bo‘lishi talab etiladi<sup>9</sup>. Demak, mazmun ko‘lami keng, lekin bir qarashda bo‘rtib ko‘zga tashlanmaydigan, o‘quvchini "yo‘naltiradigan" o‘quv materiallari yordamida uning badiiy matnni tushunishiga erishiladi. Haqiqiy insoniy fazilatlar, mas‘uliyat tuyg‘usini anglatadigan, insonni va hayot murakkabliklarini ko‘rsatib beradigan, turli janrdagi, yozilish uslubiga ko‘ra turli xil bo‘lib, turli xalqlar milliy qadriyatlarini aks ettiradigan asarlar o‘quvchi ma‘naviyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy asarni o‘rganishda yozuvchining hayoti va ijodi, savol va topshiriqlar, materialning janr xususiyatlari, ya‘ni adabiyot bo‘yicha nazariy ma‘lumotlar, asar haqidagi maqola uyg‘un holda

<sup>9</sup> Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. Monografiya.-T.:Fan,2006.-B.112.

## **“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

takomillashtirilsagina uning o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilishi oson va yengil bo‘ladi. Badiiy asarni o‘zlashtirishga ta’sir ko‘rsatuvchi bu kabi omillardan o‘rinli va samarali foydalanish o‘quvchilarda badiiy did va tafakkurni shakllantirishga xizmat qilishi shubhasiz. O‘qituvchi darslarda yangi pedagogik texnologiyalarni shunday tashkil etilishi kerakki, bunda sinfdagi barcha o‘quvchilar faollashuvi zarur, ya’ni dars o‘tish jarayonida o‘quv materiallarining ma’lum bir qismi o‘quvchilar tomonidan mustaqil o‘rganiladi, so‘ngra sinfda har tomonlama muhokama etiladi. O‘qituvchi o‘quv jarayoni tashkilotchisi, rahbari, nazoratchisi sifatida mashg‘ulotda ishtirok etadi. O‘quvchining sinfda o‘zini erkin his qilishi va o‘quv faoliyati uni emotsional jihatdan qoniqtirishi lozim, ana shundagina u o‘zining fikrlarini erkin bayon qila oladi. Yangi pedagogik texnologiyalar xilma-xil bo‘lib, qaysi metodni tanlash o‘qituvchining o‘tayotgan mavzusi, darsning maqsadi va vazifalariga bog‘liq<sup>10</sup>.

Ma’lumki, interfaol mashg‘ulot- o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘zaro faol ishtirok etadigan mashg‘ulot, hamkorlikda kechadigan jarayon hisoblanadi. Interfaol metodlarning qo‘llanishi darslarda beixtiyor psixologik o‘yin yoki musobaqaga aylantirilib, yuqorida tilga olingan bo‘sh o‘quvchilarni ham biroz bo‘lsa-da, o‘z fikrlarini o‘rtoqlariga izhor etishga, umuman, sinfda kechayotgan bahs-munozaralarga befarq bo‘lmasdan, faol ishtirok etishga undaydi. O‘quvchilarnifaollashtirish uchun dars jarayonida qo‘llaniladigan usullarni to‘g‘ri tanlash va savollarni aniq tuzish katta samara beradi. Buning uchun darsga, mavzuga qo‘yilgan maqsad aniq belgilanib, shu maqsadga erishish yo‘li, usuli puxta ko‘rib chiqilishi lozim. Demak, o‘qituvchi har bir foydalanadigan interfaol usulni o‘quvchiga nima berishini oldindan ko‘ra olishi va darsni to‘g‘ri tashkil qilishi kerak. Mirzayeva va K.Jalilovning “Adabiyot o‘qitish metodikasi. An’anaviylikdan zamonaviylikka nomli uslubiy qo‘llanmasida konstruktivizm nazariyasi haqida ma’lumot beradi. Mualliflar tomonidan rivojlangan davlatlarning maktab adabiy ta’limida konstruktivizm asosiy yondashuv sifatida mvaffaqiyatli qo‘llanilayotgani alohida ta’kidlab ko‘rsatildi. Ularning fikricha, konstruktivizm:

- o‘quvchilar bilimni tayyor holda, passiv qabul qilmasliklari kerak;
- bilimlar ta’lim jarayonida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish o‘quvchilar tomonidan “yaratilishi”, “kashf qilinishi” lozim;
- bunda o‘quvchilarning o‘zaro muloqoti muhim rol o‘ynaydi<sup>11</sup>.

Badiiy asar matni ustida ishlash jarayonida konstruktivizm nazariyasining amaliyotga tadbig‘ini amalga oshirgan metodist olim N.Kadirovning “adabiyot darslarida konstruktivizm nazariyasi kichik guruhlar bilan ishlashda yanada samaraliroq natija ko‘rsatadi. Ijtimoiy konstruktivizm tamoyiliga muvofiq kichik guruhlarda o‘zaro hamkorlikda qo‘yilgan muammoga yechim izlash interaktiv metodlar vositasida amalga oshirilishini o‘qituvchi oldindan rejalashtirishi

lozim. Bunda jamoadoshlar bir-birini tinglashi, o‘zaro do‘stona muhitni yaratishi, muammoni yechish strategiyasini to‘g‘ri ishlab chiqishi, “bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun” tamoyili asosida ish ko‘rishlari ko‘zlangan natijaga olib boradi. Qolaversa, bunday yondashuv ta’lim

oluvchilarning tashkilotchilik, tashabbus ko‘rsatish, o‘ziga ishonch sifatlarini rag‘batlantiradi. Aytaylik, biror bir badiiy asar tahlilida o‘quvchilar o‘z maqsadlarini birgalikda quradilar va o‘rganish jarayonida Nima? Nega? Nima uchun? Qanday? kabi savollarga individual jamoa bo‘lib yondashadilar” degan ilmiy qarashlarga tayanib, 5-sinf adabiyot darsligida keltirilgan “Boychechak” hikoyasi asosida o‘quvchilarda milliy kompetensiyani rivojlantirishda konstruktivizm yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi, degan xulosaga kelib, o‘z tavsiyalarimizni beramiz. “Boychechak” hikoyasida milliy qadriyatlarimiz, an’analarimizdan bo‘lgan Navro‘z bayrami arafasida o‘tkaziladigan an’ana va udumlar tasvirlangan. Umumta’lim maktab o‘quv dasturining adabiyot fani o‘quv yuklamasida ushbu asarning o‘rganilishi uchun 3 soat ajratilgan. Xo‘sh, savol: 45 daqiqa davomida 1500 so‘zdan ortiq bu asarni o‘rganib, tahlil qilish mumkinmi? Asarning ifodali, tushunarli qilib o‘qilishi uchun kamida 20 daqiqa kerak bo‘ladi. Tashkiliy ishlar va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash bosqichlariga 10-15 daqiqa ketsa, qolgan daqiqalar o‘quvchining asarni tahlil qilishi uchun yetarli emasligini ko‘rsatadi. Shunday ekan o‘quvchilarni xalqaro tadqiqot metodlariga tayyorlashdan oldin o‘quv dasturlari va mavzularga ajratilgan soatlarni bir tahlil qilsak, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Asaro‘quvchilarga o‘qib eshittirilishidan oldin, ulardan hikoyani diqqat bilan tinglash talab qilinadi. Har birvoqeaga, har bir detalga va har bir obrazga e’tibor berish kerakligi ta’kidlanadi. Hikoya o‘qituvchi tomonidan o‘qib beriladi yoki audio matni eshittiriladi. Asar o‘qib bo‘lingach, o‘qituvchi sinfdagi o‘quvchilarni 3 kichik guruhga taqsimlaydi va guruhlariga asarni turli usullar bilan tahlil qilishlarini eslatib o‘tadi. Bunda

<sup>10</sup> Fozilova M. Adabiyot darslarida adabiy-nutqiy kompetensiyalarni farqlab shakllantirish metodikasi (nasriy asarlar misolida) pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)...dss-Chirchiq, 2022. - B.158.

<sup>11</sup> Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o‘qitish metodikasi. An’anaviylikdan zamonaviylikka. Uslubiy qo‘llanma. - Toshkent: Fan ziyo, 2020. 78-b.

## **“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

o‘quvchilarga 10 ta savoldan iborat A4 hajmdagi oq qog‘oz tarqatiladi. O‘qituvchi berilgan savollarga o‘quvchilar jamoa bo‘lib javob berishlarini talab qiladi. Bu usul o‘quvchilarning mustaqil fikrlash doirasini kengaytiradi, so‘z boyligini oshiradi, kashfiyotchilik ko‘nikmasini rivojlantiradi, zehning o‘tkir bo‘lishi va har bir narsaga diqqat bilan qarashga, befarq bo‘lmaslikka, tengdoshlari bilan muloqot qilishga odatlantiradi. Milliy qadriyat, an‘ana, urf-odatlarimizga oid so‘z va iboralarni bilib olish va ularni yodda saqlab qolish orqali milliy kompetensiya haqidagi tushunchalarni anglash imkoni yaratiladi. Asar matni ustida ishlashning 2-usuli “Nima uchun...?” deb nomlanadi. Bu usul shartiga ko‘ra, kichik guruhlar topshiriq yuzasidan “Nega?”, “Nima uchun?” savollariga javob bo‘luvchi ma‘lumotlarni aytadilar. Bu usul o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tinglab tushunish, yodda saqlab qolish, xotirasida saqlangan ma‘lumotlarni o‘z nutqi orqali so‘zlab berish-kommunikativlik ko‘nikmasini rivojlantiradi. usul “Nuqtayi nazarining bo‘lsin” interfaol usuli<sup>12</sup>da olib boriladi. Bu usul o‘quvchilar o‘rtasida munozara yuzaga kelishi va shu jarayonda o‘z fikrlarini o‘z sinfdoshlariga ularning nuqtayi nazarini o‘zgartirishga ishoniradigan g‘oyalarni eshitib, o‘rtoqlari avvalgi fikrlarini o‘zgartirishi yoki o‘z fikrida qolishi mumkinligini asoslash uchun qo‘llaniladi. Bu topshiriqni bajarishlari uchun o‘quvchilarga vaqt ajratiladi. Bu usul o‘quvchilarni o‘z-o‘zini taftish qilishga, bir-birini qo‘llab-quvvatlashga, ular o‘rtasida o‘zaro mehr-oqibatni mustahkamlashga qaratilgani bilan ahamiyatli hisoblanadi. Dars so‘nggida “Boychechak-mehr muruvvat, tinchlik elchisi” mavzusida matn yozish uyga vazifa sifatida beriladi. Umumta‘lim maktablarida umuminsoniy qadriyatlarni o‘quvchilarga tanishtirib borishning ahamiyati katta. Albatta, har bir sinflar kesimida umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganishda suhbat, Hikoya, savol-javob va qo‘shimcha adabiyotlardan unumli foydalanish lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Husanboyeva Q. O‘quvchi ma‘naviyati va adabiyot darslarida mustaqil fikrlash.-Toshkent: 2008.
2. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. -Москва: «Просвещение».1991;
3. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. Monografiya.-T.:Fan,2006.
4. Fozilova M.Adabiyot darslarida adabiy-nutqiy kompetensiyalarni farqlab shakllantirish metodikasi (nasriy asarlar misolida) pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)...dss-Chirchiq,2022.

<sup>12</sup> Ro‘ziyeva D. va boshq. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi.-T.: Nizomiy nomidagi TDPU.2013.59-bet.